

References:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 (2022). Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026.
2. Joseph Schumpeter. *Foundations of Entrepreneurship*. Moscow: Delo, 1974.
3. Scott J.A., Dinkelberg W.C., Dennis W.J. *Credit, Banks and Small Business – the New Century*. Washington: NFIB Research Foundation, 2003.
4. Franklin Allen & Douglas Gale. *Comparing Financial Systems*. MIT Press, 2000.
5. Engovatova A.A., Pospelova T.V. (2017). *Digital Economy: Advertising Slogan or Reality*.

MOLIYAVIY SAVODXONLIK DARAJASINING TOMORQA XO'JALIKLARI DAROMADI BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Turobov Sherzod Alisherovich

Qarshi davlat texnika universiteti

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida kichik xo'jalik shakllarini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash hamda daromad manbalarini diversifikatsiya qilish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston sharoitida tomorqa xo'jaliklari qishloq aholisining asosiy daromad manbalaridan biri bo'lib, ular nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, balki qishloq hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, “2025-yilda O'zbekiston Respublikasida yetishtirilgan jami qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 62,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 29,4 foizi fermer xo'jaliklari va 8,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelgan”¹⁴².

Biroq tomorqa xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi va daromad barqarorligi ko'p jihatdan xo'jalik egalari tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy qarorlarning to'g'riligiga bog'liq. Xususan, ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish, kredit va subsidiya imkoniyatlaridan foydalanish, jamg'arma shakllantirish hamda risklarni boshqarish kabi masalalarda moliyaviy savodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon banki (World Bank) tadqiqotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligi darajasi past bo'lgan hududlarda kichik xo'jalik subyektlarining daromadlari o'rtacha 15–20 foizga kamroq shakllanishi kuzatiladi¹⁴³. Shu sababli moliyaviy bilim va ko'nikmalarni oshirish qishloq xo'jaligi subyektlari daromadlarini barqarorlashtirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston qishloq hududlarida ham tomorqa xo'jaliklarining moliyaviy faoliyatida bir qator muammolar mavjud. Xususan, moliyaviy rejalashtirishning yetarli darajada shakllanmaganligi, kredit resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha bilimlarning cheklanganligi hamda risklarni boshqarish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi tomorqa xo'jaliklari daromadlarining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda aholi umumiy daromadlarining asosiy qismi mehnat faoliyatidan olingan daromadlar hisobiga shakllanib, uning ulushi 60,4 foizni tashkil etdi. Mazkur daromadlar tarkibiga yollanma ishchilarning daromadlari bilan bir


¹⁴² https://stat.uz/img/news/ishlo-khzhaliqi-press-reliz-uzb_p17121.pdf

¹⁴³ <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/184063e6-52bd-59dd-bbb4-7ec8f840e009>

qatorda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ham kiradi. Aynan mustaqil bandlik faoliyatining muhim qismi qishloq hududlarida tomorqa xo'jaliklari orqali shakllanishi kuzatiladi. Shuningdek, aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 6,7 foizni¹⁴⁴ tashkil etgani ham tomorqa xo'jaliklarining iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatadi. Chunki tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari nafaqat bozor orqali sotiladi, balki uy xo'jaligi iste'molini ham ta'minlaydi. Bu esa aholi xarajatlarini kamaytirish orqali real daromadlarning oshishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, tomorqa xo'jaliklari daromadlarining barqarorligini ta'minlashda moliyaviy savodxonlik darajasining o'rne va ahamiyatini ilmiy jihatdan o'rganish muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy savodxonlik xo'jalik yurituvchi subyektlarga o'z resurslarini samarali boshqarish, ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish hamda moliyaviy risklarni kamaytirish imkonini beradi. Shu bois mazkur tadqiqot moliyaviy savodxonlik darajasining tomorqa xo'jaliklari daromadi barqarorligiga ta'sirini ilmiy jihatdan baholash hamda ushbu jarayonning iqtisodiy mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan.

Biz tomorqa yer egalari moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha olib borgan monografik tadqiqotlarimiz natijalariga asosan, "Tomorqa yer egalari moliyaviy savodxonligini oshirish mexanizmlarining konseptual modeli"ni ishlab chiqdik (1-rasm).



1-rasm. Tomorqa yer egalari moliyaviy savodxonligini oshirish mexanizmlarining konseptual modeli¹⁴⁵.

¹⁴⁴ https://stat.uz/img/news/aoli-umumij-daromadlari_lotin--24_01_2025_p94578.pdf

¹⁴⁵ Muallif ishlanmasi

Mazkur model tomorqa xo'jaliklari faoliyatida moliyaviy savodxonlikni oshirish jarayonining institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini aks ettiradi. Modelga ko'ra, moliyaviy savodxonlik darajasi uch asosiy institutsional omil orqali shakllanadi: davlat tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim dasturlari, moliyaviy xizmatlar infratuzilmasining rivojlanganligi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi.

Birinchi, moliyaviy savodxonlikni oshirishda aholiga mo'ljallangan o'quv dasturlari, treninglar hamda maslahat xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mexanizmlar tomorqa yer egalari tomonidan moliyaviy rejalashtirishni to'g'ri tashkil etish, kredit resurslaridan oqilona foydalanish hamda investitsion qarorlarni samarali qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada tomorqa xo'jaliklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ortib, ularning daromad barqarorligi mustahkamlanadi.

Ikkinchi, moliyaviy xizmatlar infratuzilmasining rivojlanganligi – bank xizmatlari, mikromoliyalashtirish, sug'urta va subsidiya tizimlarining mavjudligi – tomorqa xo'jaliklari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa xo'jaliklarning moliyaviy resurslardan samarali foydalanishiga zamin yaratadi.

Uchinchi, raqamli texnologiyalar va axborot platformalarining rivojlanishi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, tomorqa xo'jaliklari uchun moliyaviy ma'lumotlarga tezkor kirish imkonini beradi. Platformalar ("Mening tomorqam", "Agroko'makchi" va boshqalar) imkoniyati keng bo'lib, ular vositasida tomorqa yer egalari o'zlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashlari mumkin, lekin o'tkazilgan so'rovlarning natijalariga ko'ra, tomorqa yer egalarning 73 foizi platforma imkoniyatlaridan foydalanmasligi aniqlandi. Shuningdek, "Microsoft kompaniyasi 2025 yil uchun Global AI Adoption in 2025 hisoboti ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil oxirida O'zbekiston aholisining 6,3 foizi sun'iy intellekt vositalaridan faol foydalangan – bu eng yomon ko'rsatkichlardan biri. Mamlakat bu borada Kuba, Afg'oniston, Tojikiston, Turkmaniston va Kambojadan oldinda xolos"¹⁴⁶.

Natijada moliyaviy savodxonlikning oshishi tomorqa xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini kuchaytiradi, ularning daromad barqarorligini ta'minlaydi hamda qishloq hududlarida iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, tomorqa xo'jaliklari qishloq hududlarida aholi bandligi va daromadlarinshakllantirishda muhim iqtisodiy omil hisoblanib, tomorqa yer egalari moliyaviy savodxonligining oshirilishi ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, moliyaviy risklarni boshqarish hamda investitsion qarorlarni to'g'ri qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada tomorqa xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi ortib, ularning daromad barqarorligi ta'minlanadi va qishloq hududlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tomorqa xo'jaliklari faolligini oshirishning bir qarashda oddiy ko'rinadigan, ammo amaliyotda ko'pincha yetarlicha e'tiborga olinmaydigan jihatlari ham mavjud. Xususan, tomorqa yer egalari o'z mehnat faoliyati orqali mamlakatimizda keng targ'ib etilayotgan sog'lom turmush tarzini amalda namoyon etadilar. Boshqa tomondan esa, ular o'z tomorqalarida yetishtirilgan tabiiy va ekologik toza mahsulotlarni iste'mol qilish orqali sog'lig'ini mustahkamlab, dori-darmon va tibbiy xizmatlarga sarflanadigan xarajatlarni qisqartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday

¹⁴⁶<https://www.microsoft.com/en-us/research/wp-content/uploads/2026/01/Microsoft-AI-Diffusion-Report-2025-H2.pdf>

faoliyat nafaqat aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi, balki tomorqa xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

RAQAMLI MOLIYA ASRIDA AHOLING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH – IQTISODIY BARQARORLIK OMILI SIFATIDA

Mamadiyeva Dildora Qurbonali qizi

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika institute talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisdan O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida aholining moliyaviy inklyuzivligini ta'minlash va moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, raqamli moliya tizimining rivojlanishi hamda mavjud muammolar ko'rib chiqildi. Tadqiqot yakunida aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan takliflar berildi.

Kalit so'zlar: Raqamli moliya, moliyaviy savodxonlik, moliyaviy madaniyat, iqtisodiy xavfsizlik, investitsiya.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda asosiy harakatlantiruvchi kuch texnologiyalar yoki moliya institutlari emas, balki bevosita moliya bozorining ishtirokchisi bo'lgan aholining bilim darajasi, ya'ni moliyaviy savodxonligidir. Har qanday iqtisodiy islohotning samaradorligi aholining ushbu jarayonlarni qanchalik to'g'ri tushunishi va o'z mablag'larini oqilona boshqara olishiga tayanadi. Shu bois, moliyaviy savodxonlikni oshirish – iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini kafolatlovchi strategik zaruriyatdir. Moliyaviy savodxonlik deganda, shunchaki pul sanash emas, balki moliyaviy resurslarni rejalashtirish, xavf-xatarlarni baholash va kelajak uchun jamg'arma qilish ko'nikmalari tushuniladi. Hozirgi kunda bu borada quyidagi fundamental masalalar yuzaga kelmoqda:

Iqtisodiy immunitetning pastligi: Moliyaviy bilimlari yetarli bo'lmagan aholi kutilmagan iqtisodiy tebranishlar yoki inqirozlarga juda zaif bo'ladi. O'z daromad va xarajatlarini to'g'ri taqsimlay olmaslik natijasida aholi orasida ortiqcha qarzdorlik yukining ortishi kuzatiladi. Bu esa nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki butun bank-moliya tizimining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Investitsion faollikning yetishmasligi: Moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan sharoitda aholi o'z bo'sh pul mablag'larini iqtisodiyotga investitsiya sifatida kiritishdan ko'ra, ularni nafaol (naqd pul ko'rinishida) saqlashni afzal ko'radi. Bu esa iqtisodiyotda "aylanayotgan" pul massasining kamayishiga va moliya bozorida ichki investitsiya resurslarining yetishmovchiligiga olib keladi. Shu sababli, aholining moliyaviy madaniyatini yuksaltirish – moliya bozoridagi firibgarliklarga qarshi eng kuchli qalqon va mamlakat kapitalining samarali aylanishini ta'minlovchi asosiy omildir. Faqatgina ongli moliyaviy qarorlar qabul qiluvchi jamiyatgina barqaror iqtisodiy o'sishni kafolatlashi mumkin.

"Moliyaviy qarorlar – bu shaxsning kundalik ehtiyojlari va strategik maqsadlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan amaliy tanlovlar yig'indisidir. Aynan ushbu qarorlar orqali subyektlar sarmoya kiritish, kredit yukini optimallashtirish, jamg'arish yoki oqilona iste'mol qilish borasida o'z iqtisodiy manfaatlarini tizimli ravishda amalga oshiradilar. Moliyaviy savodxonlikning fundamental ahamiyatini